



LANSETSIMON SO'RG'ICHNING BIOLOGIK AXAMIYATI

Kazimova R.U., Tilavoldiyeva D.X.

"Tibbiy biologiya va kimyo" kafedrasi assistentlari

Tursunova F.A., Tursunova Z.A., Xabibullayev N.U.

Davolash ishi yo'nalishi 1 – kurs talabalari

"Central Asian Medical University" Tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada So'rgichlarning vakillari va ularning morfologiysi, tibbiyotdagi o'rni keltirib chiqaradigan kassaliklari va ulardan qanday qutilish mumkinligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Monogeneyalar, Trematodlar, *Fasciola hepatica*, tegument, Ichak, Jigar, Gelmintlar, Sinstiy, Ektoderma.

Trematodalar sinfi vakillari ham monogeneyalar singari kiprikli chuvalchanglardan kelib chiqqan. Ammo ular barcha umurtqalilar - baliqlar, amfibiyalar, reptiliyalar, qushlar va sut emizuvchilar, shu jumladan odamlarning hamda umurtqasizlarning ichki parazitlari hisoblanadi. Bu sinf haqidagi dastlabki ma'lumotlar 17-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Taniqli italiyalik olim Redi birinchi marta qoramollar jigarida jigar qurtini topib, uning tuzilishini o'rganadi. Shved olimi K. Linney trematodalaming 40 dan ortiq turini o'rganib, birinchi marta trematodalar sinfiga asos solgan. 1819-yili mashhur gelmintolog olim K.A. Rudolfi 220 dan ortiq trematodalar turini o'rganadi. Trematodalarni har tomonlama o'rganishda rus olimlari yetakchi rol o'ynaydi. Akademik K.I. Skryabin o'z sho-girdlari bilan trematodalar bo'yicha 26 tomlik kapital asarlar yozgan. Hozirgi vaqtida trematodalar, ya'ni so'rg'ichlilar sinfiga 5000 dan ortiq tur kiradi, shulardan qariyb 50% i baliqlarda qolganlari esa boshqa umurtqalilarda parazitlik qiladi. Odamlarda ularning 30 ga yaqin turi uchraydi. Trematodalar o'z xo'jayinlarining hazm organlarida, jigar va jigar o't yo'llarida, qon tomirlarida va boshqa ichki organlarda parazit holda yashaydi. Bu sinfga kiruvchilarning hammasi endoparazitlar hisoblanadi.

Trematodalarning ko'pchiligi bargsimon shaklga ega. Ammo ular orasida noksimon, ipsimon shaklga ega bo'lganlari ham uchraydi. Trematodalarning tana uzunligi 0,1 mm dan 10-15 sm gacha yetadi. Akulalarning og'iz bo'shlig'ida parazitlik qiladigan ayrim so'rg'ichlilarning uzunligi 1,5 m ga yetadi (Didymozoidae oilasi turlari). Jigar qurti bu sinfning tipik vakili hisoblanadi.

Jigar qurti *Fasciolidae* oilasiga kiradi. Jigar qurti odatda mayda va yirik shoxli mollarda, ba'zan boshqa hayvonlar va odamlarning jigarida hamda o't yo'llarida parazitlik qiladi.

Dunyoda Fasciolidae oilasiga 8 ta tur kiradi. Respublikamizda chorva mollarida fasciolalarning asosan 2 ta turi, ya’ni oddiy jigar qurti (*Fasciola hepatica*) va gigant jigar qurti (*Fasciola gigantica*) parazitlik qiladi.

F.hepatica bargsimon shaklda bo’lib, voyaga yetganlarining tanasi 30-40 mm uzunlikka, eni esa 12-13 mm ga teng. Bunday fasciolalarning rangi kulrang va biroz qo’ng’ir bo’lsa, jigar to’qimalarida parazitlik qiluvchi yosh trematodalar oq, sutsimon ko’rinishga ega va ular tanasining uzunligi odatda 18-19 mm dan oshmaydi.

F.gigantica ning tanasi bo’yiga cho’zilgan, eni esa qisqa bo’ladi. Ularning jigar o’t yo’llarida parazitlik qiluvchi voyaga yetganlarining tana uzunligi 30 mm dan 70 mm gacha bo’lib, eni esa 6-11 mm. Jigar to’qimalarida parazitlik qiluvchi mazkur turga oid yosh trematodarning uzunligi 1-2 mm dan 30 mm gacha bo’lib, eni 0,2-5,0 mm ni tashqil qiladi. Ushbu trematoda *F.hepatica* ga nisbatan yuqori patogenli hisoblanadi.

Fasciolalarning tuxumlari oval shaklida, sariq-tilla rangda bo’lib, bitta qutbida qopqoqchasi mavjud. *F. hepatica* tuxumlarining o’lchami 0,12-0,15 mm ga teng. *F.gigantica* tuxumlari esa biroz yirikroq bo’ladi.

Tana qoplag’ichi tegument deb ataladigan kipriksiz epitelidan iborat. Epiteliyning sirtqi qavati yadrosiz sitoplazmatik plastinkadan iborat. Bu qavat hujayralar juda ko’p mitoxondriylar va vakuollarga ega, lekin hujayralar o’rtasida chegara yo’qolib, sinsitiy hosil qiladi. Epiteliy sirtidagi har xil pixlar qo’shimcha yopishuv organi hisoblanadi. Sitoplazmatik ipchalar yordamida tegument qavati sitoplazmaning parenximasiga botib turadigan yadroli qismi bilan bog’langan. Tegument ostida bazal membrana va uning ostida halqali-bo’ylama muskullar joylashadi.

Hazm sistemasi ektodermali oldingi ichak (og’iz, tomoq, qizilo’ngach) va entodermali o’rta ichakdan iborat. Yirik vakillarida ichak kuchli tarmoqlangan bo’lsa, birmuncha mayda turlarida ikkita yon nayidan tuzilgan. Ichaklarining uchlari berk. Og’zi tananing oldingi qismida, og’iz so’rg’ichining ostida joylashgan (3- rasm). Ayirish sistemasi protonefridiy tipida bo’lib, odatda bir juft yig’uvchi naylar va ulardan tarqaladigan juda ko’p naychalardan iborat. Naylar siydk pufagiga, pufak esa tashqariga ochiladi. Nafas olish va qon aylanish sistemalariga ega emas.

Lansetniklar (*Branchiostoma*, ya’ni *Amphioxus*) — bosh skeletsizlar kenja tipiga mansub xordalilar sinfi. Uzunligi 8 sm gacha, tanasi lansetsimon, och pushti rangli shaffof; xordasi tanasining oldingi uchigacha yetadi. 11 turi bor. Tipik vakili lansetnik (*Branchiostoma lanceolatum*, ya’ni *A. lanceolatus*) mo’tadil va iliq suvli dengizlarda 10-30 sm chuqurlikda ko’milib yashaydi; qumdan tanasining oldingi qismi chiqib turadi. Plankton bilan oziqlanadi. Dum suzgichi lansetga o’xshash (nomi shundan olingan). Terisi yalang’och (tangachalar bilan qoplanmagan). Dum suzgichidan boshqa suzgichlar bo’lmagani uchun faol harakatlanmaydi. Og’iz teshigi paypaslagichlar bilan o’ralgan. Ko’rish va eshitish organlari bo’lmaydi. Jabra yoriqlari 100 juft. Terisi ostida joylashgan Gess ko’zchalari yordamida yorug’likni sezadi. Ayrim jinsli. Uvildirig’ini

suvga tashlaydi, tuxumlari suvda urug'lanadi. Lichinkasi erkin suzib yuradi. Lansetniklarni ilk bor 1774-yilda rus olimi Peter Simon Pallas topgan va uni mollyuska (*Umax lanceolatus*) sifatida tavsiflangan. Aleksandr Kovalevskiy lansetniklarni eng tuban tuzilgan xordali hayvonligini ko'rsatib bergen. Lansetniklar ko'pchilik dengizlarda, jumladan, Qora dengizda ham uchraydi. Lansetniklar sanoat ahamiyatiga ega emas. Mahalliy xalqlar iste'mol qilishadi. Lansetniklar xordalilarning kelib chiqishini tushuntirishda nazariy ahamiyatga ega. Qon aylanish sistemesi barcha xordalilariniki singari yopiq bo'ladi. Lekin qon yagona qon aylanish sistemasi bo'ylab harakatlanadi. Asosiy qon tomirlari qorinva aortalardan iborat. [2] Lansetsimon so'rg'ichli jigar qurti kabi qo'y, echki, qoramol, ot, eshak, bug'u, cho'chqa, quyon va ba'zan odamlarning jigari va o't yoMlarida parazitlik qilib hayot kechiradi (30-rasm). 30-rasm. Lansetsimon so'rg'ichli - Dicrocoelium lanceatum ning rivojlanish ikli A-asosiy ho'jayinlar, B-oraliq xo'jayin-quruqlikda yashovchi molyuska, V-zarar-langan jigar, G-shilliq tugunchalar va ikkinchi oraliq xo'jayinchumoli. I-voyaga etgan lansetsimon so'rg'ichli; 2-tuxum; 3-mirasidiy; 4-onasporasista; 5-qiz sporasista; 6-serkariya; 7-metaserkariya. Bu so'rg'ichlining gavdasi xirurgik pichoq (lanset)ga o'xshaganligi uchun lanset deb atalishiga sabab bo'lgan. Tanasi 5-10 mm uzunlikda bolib, so'rg'ichlari bir-biriga yaqin joylashgan. Ichaklari ikki shoxchali bo'lib, tananing chetlari bo'ylab joylashgan va ko'r o'simta bilan tugallangan. Yumaloq shakldagi juft urug'donlar qorin so'rg'ichining orqa tomonida joylashgan bo'Mib, undan keyinroqda bir dona yumaloq tuxumdoni bo'Madi. Ichaklar yonida sariqlik bezlari mavjud. Bachadon tananing orqa yarmini tomir egallagan. Lansetsimon so'rg'ichlining rivojla-nish sikli juda murakkab bo'lib, nasl almashtirish orqali borib uchta xo'jayin ishtirot etadi. Oxirgi (definitiv) xo'jayi-ni har xil sut emizuvchilar, birinchi oraliq xo'jayini quruqlikda yashovchi qorinoyoqli mollyuska va qo'shimcha ikkinchi oraliq xo'jayini chumolilar hisoblanadi. Tuxumlar xo'jayini axlati bilan tashqi muhitga chiqadi. Parazit tuxumlarining keyingi taraqqiyoti uchun suvli muhit doimo bo'lishi shart emas. Tuxumda shakllangan mirasidiy lichinkasi tuxum po'stini yorib, tashqariga chiqsa olmaydi. Molyuska ichida mirasidiylari bor tuxumlarni iste'mol qilishi orqali parazitni o'ziga yuqtiradi. Mollyuska organizmida tuxumdan mirasidiy chiqib sporotsistaga aylanadi. Sporotsista ikki marta tullab, ikkinchi avlod sporotsistasidan serkariyalar hosil bo'ladi. Mollyuskaning nafas yo'lida serkariylar 100-300 nusxdan to'planib, umumiylar bir po'stga o'raladi va bu to'plam shilliq tugunchalar deb ham ataladi. Keyinchalik bu tugunchalar mollyuskaning nafas olish teshigi orqali tashqi muhitga chiqib o'simlik va boshqa substratlarga yopishadi. Serkariyalar o'ralgan shilliq tugunchalami chumolilar yutib yuborishi natijasida parazitni o'ziga yuqtirib oladi.



CANADA



CANADA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://muhaz.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-v26.html?page=5>
2. Nazarova F.Sh., Jumanova N.E. Toshmamatov B.N.
3. Tibbiy parazitologiya asoslari. odam nematodozlari va trematodozlari [Matn]
4. O`quv qo`llanma / Nazarova F.Sh.. Jumanova N.E. Toshmamatov B N - Toshkent
5. "QAMAR MEDIA" .. 2022. - 100 b
6. X.Xolikov, A.Q.Qurbanov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova ...2015yil
7. P.R.01imxo“jayeva — I ToshDTI tibbiy biologiya va genetika kafedrasi mudiri, biologiya fan lari doktori, professor.
8. P.H.Iholiqov II ToshDTI tibbiy biologiya va genetika kafedrasi professori, biologiya I'anlari doktori.Davlat ilmiy nashriyoti, 2005